



TASDIQLAYMAN:
 “O‘ZMETKOMBINAT” AJ
 Boshqaruv raisi – bosh direktor
 R. X. Pirmatov

**“O‘zbekiston Metallurgiya Kombinati” aksiyadorlik jamiyatining O‘zbekiston Respublikasi
 “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunini amalga oshirish bo‘yicha DASTURI**

№	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Mas‘ul Ijrochilar
Tashkiliy chora-tadbirlar				
1.	Mavjud ichki idoraviy hujjatlardagi belgilangan talablarni “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunga (keyingi o‘rinlarda – Qonun) muvofiqlashtirish choralari ko‘rish. Bunda, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishda o‘rnak bo‘layotgan xodimlarni rag‘batlantirish choralari ko‘rish masalasini inobatga olish.	1. Jamiyat o‘rinbosarlari rahbarligida ishchi guruhini tashkil etish. 2. Ishchi guruh tomonidan tegishli ichki hujjatlarni xatlovdan o‘tkazish. 3. Xatlovlar natijasiga asosan ichki idoraviy hujjatlarni Qonun talablariga muvofiqlashtirish bo‘yicha buyruqlarni qabul qilish.	2024-yil Iyul’ 2024-yil avgust 2024-yil avgust	Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti Umumiy masalalar bo‘yicha direksiya Komplayens - xizmati Yuridik departament
2.	Odob-axloq komissiyalarining va maxsus bo‘linmalarining manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish bo‘yicha faoliyatini tashkil etish.	1. Ishchi guruh tomonidan Odob-axloq komissiyalarining va maxsus bo‘linmalarining manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solishga qaratilgan tegishli hujjatlarini tahlil qilish. 2. Tahlillarga asosan mavjud imkoniyatlar doirasida Odob-axloq komissiyalarining va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalarini faoliyatini to‘liq yo‘lga qo‘yishga doir ichki idoraviy buyruqlarni qabul qilish.	2024-yil avgust 2024-yil sentyabr	Umumiy masalalar bo‘yicha direksiya Xodimlar va tashkiliy rivojlanish direksiyasi Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti Komplayens - xizmati

№	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Mas'ul Ijrochilar
3.	Jamiyatning axborot tizimlari, savdo platformalari va boshqa dasturiy ta'minotlarini Qonun bilan belgilanayotgan talablarga muvofiqligini o'rganish hamda mavjud moliyaviy imkoniyatlari doirasida ularni takomillashtirish bo'yicha tashkiliy choralarni ko'rish.	1. Jamiyat va uning tizimidagi idoralarning axborot tizimlari, savdo platformalari va boshqa dasturiy ta'minotlari orqali xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha deklaratsiyalarni va xabarnomalarni yuborish imkoniyatini joriy etish. 2. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlarni Raqamli texnologiyalar vazirligiga taqdim qilish.	2024-yil avgust 2024-yil sentabr	Axborot texnologiyalari direksiyasi Dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va amalga oshirish boshqarmasi Xodimlar va tashkiliy rivojlanish direksiyasi, Kadrlar bo'yicha ish yuritish va tanlash boshqarmasi
4.	Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish va aniqlashda ishtirok etadigan xodimlarga ishonib topshirilgan yoxud ularga kasbiy, xizmat yoki mehnat majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan ma'lum bo'lib qolgan shaxslarning shaxsga doir ma'lumotlarini oshkor etishga yo'l qo'yilmasligi yuzasidan mas'ul xodimlarni oghlantirish ishlarni amalga oshirish.	Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish va aniqlashda ishtirok etadigan xodimlarni Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha O'zmetkombinat AJ siyosati bilan tanishtirish (kombinat hududiy va tarkibiy bo'linmalarida).	2024-yil iyul	Tarkibiy va hududiy bo'linma rahbarlari Komplayens - xizmati Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti (IKM xavfsizligini ta'minlash bo'limi)
Manfaatlar to'qnashuvi holatlarini tartibga solish chora-tadbirlari				
5.	Jamiyat hamda ularning bo'ysunuvida bo'lgan korxonalarda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha qonunchilik hujjatlarida belgilangan cheklovlarga rioya etilayotganligini o'rganish, bunday cheklovlarning samaradorligini tahlil qilish.	1. Jamiyat faoliyatiga oid qonunchilik va idoraviy hujjatlarda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha qanday cheklovlar mavjudligini xatlovdan o'tkazish. 2. 2023 - yil va 2024 - yilning 1-yarim yilligi davomida ushby cheklovlarga rioya qilinishi holatini o'rganish.	2024-yil avgust	Xodimlar va tashkiliy rivojlanish direksiyasi Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti Komplayens - xizmati

№	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Mas'ul Ijrochilar
		3. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlarni Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish.		
6.	Yaqin qarindoshlar bevosita bo'ysunuvda yoki nazorat yo'nalishidagi tashkilotlarda ishlayotgan holatlarni aniqlash hamda natijalarini Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish.	1. Tashkilot va uning tizimida yaqin qarindoshlar bevosita bo'ysunuvda yoki nazorat yo'nalishidagi tashkilotlarda ishlayotgan holatlarni aniqlashga qaratilgan tahlillarni amalga oshirish. 2. Tayyorlangan ma'lumotlarni Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish.	2024-yil iyul - avgust 2024-yil avgust	Xodimlar va tashkiliy rivojlanish direksiyasi, Kadrlar bo'yicha ish yuritish va tanlash boshqarmasi Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti Komplayens - xizmati
7.	Kombinat uning bo'ysunuvda bo'lgan jamiyatlarda xodimlar o'rindoshlik asosida ishlayotgan holatlarni aniqlash hamda natijalarini Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish.	1. Jamiyat va uning tizimida bo'lgan xodimlarni o'rindoshlik asosida ishlayotgan holatlarni aniqlashga qaratilgan tahlillarni amalga oshirish. 2. Tayyorlangan ma'lumotlarni Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish.	2024-yil Iyul – avgust 2024-yil avgust	Xodimlar va tashkiliy rivojlanish direksiyasi, Kadrlar bo'yicha ish yuritish va tanlash boshqarmasi Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti Jamiyat bo'ysunivida bo'lgan korxonalar rahbarlari Komplayens - xizmati
8.	Jamiyatdan ishdan bo'shagan xodimning o'z ish joyida bevosita nazoratida bo'lgan korxonalariga ishga kirish holatlarini aniqlash hamda natijalarini Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish.	1. 2023-yil va 2024-yilning 1-yarim yilligi davomida bevosita o'zi nazoratga amalga oshirgan tashkilotga ishga o'tgan xodimlarni ro'yxatini shakllantirish. 2. Tayyorlangan ma'lumotlarni Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish.	2024-yil avgust	Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti Xodimlar va tashkiliy rivojlanish direksiyasi

№	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Mas'ul Ijrochilar
				<p>Jamiyat bo'ysunivida bo'lgan jamiyatlar rahbariyati</p> <p>Komplayens - xizmati</p>
9.	<p>Xodim o'zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organi yoki boshqa tashkilotning nazoratida bo'lgan tadbirkorlik faoliyati subyekting aksiyalariga yoki ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga egalik qilgan, shuningdek, ushbu tadbirkorlik faoliyati subyektlarining boshqaruv organi a'zosi bo'lgan holatlarni aniqlash hamda natijalarini Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish.</p>	<p>1. O'zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organi yoki boshqa tashkilotning nazoratida bo'lgan tadbirkorlik faoliyati subyekting aksiyalariga yoki ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga egalik qilayotgan xodimlar soni va ularning ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>2. Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining boshqaruv organi a'zosi bo'lgan xodimlar soni va ularning ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>3. Tayyorlangan ma'lumotlarni Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish.</p>	<p>2024-yil Avgust – sentyabr'</p>	<p>Komplayens - xizmati</p> <p>Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti</p> <p>Jamiyat bo'ysunivida bo'lgan jamiyatlar rahbariyati</p> <p>Xodimlar va tashkiliy rivojlanish direksiyasi</p> <p>Ichki audit xizmati</p> <p>Korporativ munosabatlar boshqarmasi</p>
10.	<p>Jamiyat xodimlari tomonidan 2024-yilda manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha to'ldirilgan yillik deklaratsiyalarni tahlil qilish hamda natijalarini Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish.</p>	<p>1. Tashkilot va uning tizimida xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha yillik deklaratsiyalarni to'ldirilishini ta'minlash.</p> <p>2. Manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha to'ldirilgan yillik deklaratsiyalarni tahlil qilish va tartibga solish choralarini ko'rish.</p> <p>3. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlarni Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish.</p>	<p>2024-yil avgust</p>	<p>Xodimlar va tashkiliy rivojlanish direksiyasi, Kadrlar bo'yicha ish yuritish va tanlash boshqarmasi</p> <p>Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti</p> <p>Komplayens - xizmati</p>
11.	<p>Jamiyatga jismoniy va yuridik shaxslardan manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilish hamda natijalarini Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish.</p>	<p>1. Jamiyat va uning tizimida xodimlar tomonidan 2023-yil va 2024-yilning 1-yarim yilligi davomida jismoniy va yuridik shaxslardan manfaatlar</p>	<p>2024-yil avgust</p>	<p>Hujjatlar tahlili va ijrosini ta'minlash, murojaatlar bilan ishlash boshqarmasi</p>

№	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Mas'ul Ijrochilar
		<p>to'qnashuvi bo'yicha kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilish.</p> <p>2. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlarni Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish.</p>	2024-yil avgust	<p>Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti</p> <p>Jamiyat bo'ysunivida bo'lgan jamiyatlar rahbariyati</p> <p>Komplayens - xizmati</p>
Amalga oshiriladigan targ'ibot tadbirlari va xodimlarni malakasini oshirish				
12.	<p>Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyaning va mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi xabarnomaning belgilangan shaklini rasmiy veb-saytga va tegishli elektron tizimlarga joylashtirish.</p>	<p>1. Jamiyatning rasmiy veb-saytga va tegishli elektron tizimlarga joylashtirish.</p> <p>2. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlarni Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish.</p>	<p>2024-yil sentabr</p> <p>2024-yil sentabr</p>	<p>Komplayens - xizmati</p> <p>Xodimlar va tashkiliy rivojlanish direksiyasi, Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti</p>
13.	<p>Jamiyat xodimlarining manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq qonunchilik hujjatlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini onlayn test sinovlari orqali baholash hamda ularning malakasini oshirish bo'yicha tashkiliy choralarini belgilash.</p>	<p>1. Jamiyat va uning tizimidagi boshqaruv xodimlarining Adliya vazirligi tomonidan o'tkaziladigan manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq qonunchilik hujjatlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini onlayn testda to'liq ishtirokini ta'minlash.</p> <p>2. Jamiyat va uning tizimidagi boshqaruv xodimlarining malakasini oshirishini to'liq ta'minlash.</p>	2024-yil iyul-sentabr	<p>Tarkibiy bo'linmalar rahbarlari</p> <p>Kadrlar bo'yicha ish yuritish va tanlash boshqarmasi</p> <p>Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti</p> <p>Komplayens - xizmati</p>
14.	<p>Manfaatlar to'qnashuvi natijasida fuqarolarga, tashkilotlarga, jamiyatga yoki davlatga yetkazilgan zararining o'rni qoplanishini ta'minlash, shuningdek aholining tashkilotga bo'lgan ishonchini tiklash yuzasidan ma'sul xodimlar uchun seminar trening tashkil etish.</p>	<p>1. Tashkilot va uning tizimida mas'ul xodimlari ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>2. Mas'ul xodimlarni tegishli tartibda o'qitish choralarini ko'rish.</p> <p>3. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlarni Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish.</p>	<p>2024-yil avgust</p> <p>2024-yil sentyabr</p>	<p>Yuridik departamenti</p> <p>Xodimlar malakasini baholash, o'qitish va rivojlantirish boshqarmasi</p> <p>Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti</p>

№	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Mas'ul Ijrochilar
				Komplayens - xizmati
15.	Qonun ijrosini tashkil etish ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tomonidan tashkil etilgan ishchi guruhlarning so'roviga ko'ra tegishli ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim qilib borish ishlarini amalga oshirish.	1. Jamiyati tomonidan O'zbekiston Respublikasi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunini amalga oshirish bo'yicha DASTURini bajarilishini ta'minlash va Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish.	doimiy	Umumiy masalalar bo'yicha direksiya Komplayens - xizmati Xodimlar malakasini baholash, o'qitish va rivojlantirish boshqarmasi Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti